

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING BUGUNGI KUNDAGI TIL O'RGANISH JARAYONIDAGI O'RNI

Turan Xalqaro Universiteti talabasi  
Abdulhamidova Ra'noxon Alisher qizi

[@abdulhamidovarano2112](https://www.instagram.com/abdulhamidovarano2112)

[+998 50 755 50 20](tel:+998507555020)

Turan International University talabasi  
To'xtaraliyev To'lagan Nurlanbek o'g'li.

[+998 88 155 01 02](tel:+998881550102)

**Annatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarni zamonaviy bilimlar, xususan, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish va global miqyosda raqobatbardosh bo'lish zarurligi haqidagi fikrlaridan kelib chiqib, axborot vositalarining til o'rganishdagi muhim rolini yoritadi. Maqolada axborotlashgan jamiyatda, ayniqsa, ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani ta'kidlanadi. An'anaviy ta'lim usullari cheklangan samara berishi, aksincha, zamonaviy axborot vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlar, onlayn platformalar) til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** til o'rganish, axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, madaniyatlararo muloqot, zamonaviy ta'lim, ingliz tili, raqamli platformalar.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi yoshlarimiz zamonaviy bilimlarni ayniqsa xorijiy tillarni puxta egalab jahon miqyosida raqobatdosh bo'lishi zarur. Buning uchun har bir imkoniyatdan oqilona foydalanish kerak." Axborotlashgan jamiyat kengayishi chet tillariga, asosan ingliz tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ommaviy axborot vositalari bo'lmagan holatda o'qitish, ya'ni til o'rganish yosh avlodning amaliy mashqlarida yetarli samara

bermaydi , chunki ular ko‘pincha nazariy o‘ganilgan bilimlar va cheklangan ma‘lumotlardan foydalanishlari hisoblanadi.

Zamonaviy axborot vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlar va boshqalar platformalar ) esa o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘plab mamlakatlardan bo‘lgan talabalarning o‘zaro aloqa orqali til ko‘nikmalari rivojlantirish tizimini ifodalaydi. Bu yondashuv nafaqat til o‘rganish vositasi, balki madaniyatlararo muloqot va do‘stlik aloqalarini yuqori darajaga olib chiqish va dunyoqarashni kengaytirish uchun yangi yo‘l sifatida ham qarash lozim.

**Asosiy qism:** Tilni samarali o‘rganish uchun o‘sha tilning doimiy muhitda bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Axborot vositalari bu muhitni sun‘iy tarzda yaratadilar. Masalan, ingliz tilidagi yangiliklarni eshitish yoki subtitrlar bilan filmlar ko‘rish orqali o‘rganuvchi talaffuz , intonatsiya ( ya‘ni nutqdagi ohang) va yangi so‘zlarning tabiiy yo‘l bilan o‘rganishi muhim ahamiyatga ega.

So‘z boyligini oshirish va nutqni rivojlantirish asosan axborot vositalariga bog‘liq. Gazeta va internet maqolalarini o‘qish, podcastlar yoki intervyularni tinglash o‘rganuvchining leksik zahirasi(so‘z boyligi) ni kengaytiradi.shuningdek ijtimoiy tarmoqlarda.

Masalan ( Tiktok, youtube yoki instagram ) kontentlarini kuzatish , real hayotdagi ifodalar, zamonaviy iboralarni o‘rganish imkonini beradi. Madaniyat va kontekslarni tushunishga yordam beradi. Har bir til o‘z xalqining madaniyatiga o‘zaro bog‘liq. Axborot vositalari orqali o‘sha xalqning hayoti, urf-odatlarini va qadriyatlarini e‘tibor bilan o‘rganish , tilni nafaqat grammatik, balki madaniy tomondan ham tahlil qilib anglashga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, o‘quvchini mustaqil fikrlashga va erkin o‘rganishga undaydi.

Internet va raqamli axborotlar vositalari tilni o‘zlashtirishda erkin harakat qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Misol uchun onlayn darslar , mobil ilovalar (hellotalk ,elsa ,duolingo, BBC learning English va boshqalar) asosida hamma qulay vaqtda bilib olish uchun sharoit yaratib beradi. Chunki talabalar va til o‘rganuvchilar o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtiradi, nazorat qiladi va baholaydi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga

ko'maklashadi. Kichkina video, test, yoki o'yinlar materiallari bilan o'rganuvchi muntazam mashq qilishishi orqali zerikishni oldini oladi chunki til o'rganish ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali yuz beradi.

Bu esa motivatsiya berib tezroq til o'rganishga zamin yaratish bilan taminlaydi.

Axborot vositalari orqali talabalar bloglar yaratadi va o'z tengdoshlari bilan fikr va malumot almashadilar. Shuningdek yangi kontentlar masalan ( blog, video , podcast yoki post yozish ) yaratish orqali o'rganuvchilarga bilimlarini amalda sinab korish uchun ruhlantiradi. Bu jarayonda inson grammatikani, so'z boyligini va talaffuzni real vaziyatlarda ishlatadi.

Bu formatlar an'anaviy yozishmadan ko'proq ijodiy erkinlik beradi va turli o'rganish uslublariga mos keladi. Xatto, Instagram va Tiktok ilovalari ham ta'lim maqsadida ishlatilmoqda. O'rganuvchilar qisqa kontentlar yaratadi va madaniy almashinuvni vizual tarzda amalga oshiradi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Ommaviy axborot vositalari zamonaviy ta'limda, xususan, xorijiy tillarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar til o'rganuvchilarga tabiiy muhitda ko'nikmalarni rivojlantirish, so'z boyligini kengaytirish va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash imkonini beradi. Bu vositalar nafaqat grammatik bilimlarni, balki tilning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi va o'zlashtirish jarayonini qiziqarli qiladi. Shunday qilib, axborot vositalaridan oqilona foydalanish tilni mukammal va samarali o'zlashtirishga zamin yaratadi, yoshlarni global raqobatbardoshlikka tayyorlaydi.

Axborot vositalari til o'rganish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular yordamida o'rganuvchilar nafaqat yangi bilim yoki so'z, balki o'sha tilning madaniy qadriyatlarini bilib oladi. Shuning uchun zamonaviy ta'lim jarayonida axborot vositalaridan oqilona foydalanish tilni mukammal va to'liq o'zlashtirishga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o'zlashtirishga oid nutqlari*. Toshkent:
2. Crystal, D. (2012). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Thorne, S. L., & Black, R. W. (2011). *Identity and Interaction in Internet-Mediated Contexts*. In C. Higgins (Ed.), *Identity Formation in Globalizing Contexts* (pp. 257–278). Berlin: De Gruyter Mouton.
5. Chapelle, C. A. (2016). *Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing, and Research*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Godwin-Jones, R. (2019). *Emerging Technologies: Mobile Apps for Language Learning*. *Language Learning & Technology*, 23(2), 1–15
7. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). *An Overview of Mobile Assisted Language Learning: From Content Delivery to Supported Collaboration and Interaction*. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
8. BBC Learning English. (2025). *Online Resources for English Language Learning*. Retrieved from <https://www.bbc.co.uk/learningenglish>.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha qo'llanma*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.